Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2. Brown, A., & Johnson, R. (2019). Regional Development and Industrial Synergy. International Review of Economics.
3. Lee, S. (2021). Public-Private Partnerships in Infrastructure Development: The South Korean Experience. Asian Economic Perspectives.
4. Müller, H. (2018). Financial Institutions Supporting Industrial Cooperation in Germany. Finance and Industry.
5. Tan, C. (2020). Streamlining Regulatory Frameworks for Industrial Growth: Lessons from Singapore. Regulatory Affairs Review.
6. Meier, P., & Fischer, L. (2019). Vocational Training and Industrial Skills Development: A Swiss Model. Education and Industry Journal.
7. Nakamura, Y. (2021). Awareness Campaigns and Industrial Cooperation: The Japanese Experience. Journal of Industrial Development.
8. Karimov, T. (2022). Industrial Development in Uzbekistan: Current Trends and Challenges. Uzbekistan Economic Review.
9. Zhang, W. (2020). Technological Advancements and Inter-Sectoral Collaboration. Journal of Innovation Management.
10. Aliyev, D. (2019). Infrastructure and Economic Cooperation in Central Asia. Central Asian Economic Studies.

BANKLARDA KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismoilova Muyassar Ro‘ziqul qizi
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
muyassarismoilova01@gmail.com

Annotatsiya: Bank mahsulotlari va xizmatlarini sotish har qanday kredit tashkiloti faoliyatida eng muhim bosqichdir. Hozirgi sharoitda bank biznesining rivojlanishi bank mahsulotlari va xizmatlarini bozorga olib chiqish uchun informasion texnologiyalardan keng foydalanish, eng yangi texnikaviy vositalar va ilg‘or bank texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, xizmatlarning jozibadorligini oshiruvchi bank uslublarini izlash bilan bog‘liqdir

Kalit so‘z: Korporativ boshqaruv. Kotinental model. Anglo-amerika modeli. Insayder. Daxldor shaxs. Bank kengashi. Bank boshqaruvi. Yirik aksioner. Aksionerlik jamiyati. Oddiy aksiya. Imtiyozli aksiya. Korporativ boshqarish tamoyillari. Taftish komissiyasi.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning turli modellari mavjud. Korporativ boshqaruvning modellarini anglo-amerika va yapon-german modellariga bo‘lamiz. Uni ayrim adabiyotlarda 103 autsayder (outside) va insayder (inside) modellari deb atashadi.

Korporativ boshqarishning anglo-amerika modeli turli xilligi bilan, ya’ni diversifikatsiyashuv darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Aksionerlik kapitali turli o‘zaro aloqador bo‘lmagan subyektlar va shaxslar o‘rtasida keng taqsimlanadi. Bunday sharoitda aholining ham pul mablag‘lari jalb etiladi va zarur investitsion sharoitni yaratib moliya bozorlarining faolligini hamda barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu modelda asosan aksiyalar nazorat paketi taxminan 6-14 % ni tashkil qiladi. Anglo-amerika modelida aksionerlar tomonidan aksiyalarga egalik qilish, nazorat qilish bilan ajralib turadi. Aksionerlarning huquqlari kafolatlanadi va boshqaruvchi hamda direktorlar ularga hisobot beradi. Korporativ boshqarishning angloamerika modelida banklar

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ismoilova Muyassar Ro‘ziqul qizi (2024). Banklarda korporativ boshqaruv modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/997
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

faoliyatini boshqarish qimmatli qog‘ozlar bozori holatiga, uning rivojlanish darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Korporativ boshqarishning anglo-amerika modelining kontinental modeldan farqi quyidagilar:

1) aksiyaga turli xil subyektlarning egalik qilishi, ya’ni diversifikatsiyasi darajasi yuqoriligi;

2) kompaniyalar bo‘yicha qonunchilikda aksionerlar manfaatlarining yuqori darajada belgilanishi;

3) qimmatli qog‘ozlarda va kompaniyalar to‘g‘risidagi normativ hujjatlarda kamchilik aksiya egalari manfaatlarining himoya qilinishi;

4) banklarning o‘z ma’lumotlarini ochishga (tarqatishga) qo‘yiladigan qattiq talablari bilan ajralib turadi.

Korporativ boshqaruvning qaysi modelidan foydalanish mamlakat bank tizimi-moliya tizimi va fond bozorlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan banklarning amerikacha yoki yevropacha modelida ham bog‘liqlik mavjud.

Korporativ boshqarishning Germaniya modeli yoki Kontinental modelida aksionerlarning yuqori konsentratsiyasini ko‘rish mumkin. Bunda insayderlar guruhi kam sonli bo‘lib, o‘z tarkibiga ma’lum bir guruhlarni oladi, jumladan xodimlarni, oila a’zolarini, banklarni, boshqa kredit tashkilotlarini, boshqa korporativ mulk shakllarini, xolding yoki sanoat guruhlari shaklida birlashishni va boshqa kesishmali aksiyalarga egalik qilish mexanizmlarini oladi. Bunda jismoniy shaxslarning ulushi odatda 20 foizdan ortiqroqni tashkil etadi. Past bo‘lishiga sabab banklardagi omonatlarning stavkalari dividend 104 to‘lovlaridan yuqori bo‘lishidir. Moliya muassasalari kompaniyalarning 60-70% aksiyalariga egalik qiladi. Aksionerlar bir-birini yaxshi biladi va o‘zaro munosabatlarda qo‘llab-quvvatlaydi.

Banklar bir vaqtning o‘zida aksioner, kreditor va boshqa aksionerlar uchun ishonchli shaxs bo‘lib xizmat qiladi. Emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni turli subyektlar o‘rtasida joylashtiradi. Bu esa banklarning direktorlar kengashida ishtirok etishini ta’minlaydi. Natijada kontinental modelda guruhlar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik va nizolar ko‘proq kelib chiqadi. Asosiy nizolar katta ulushga ega bo‘lgan va minoritar ulushga ega aksionerlar o‘rtasida kelib chiqadi. Ushbu modelda asosiy rolni yirik aksioner o‘ynaydi va ular faoliyatiga fond birjalarining ta’siri kam bo‘ladi. Shuningdek, ushbu modelda ma’lumotlarni ayriboshlash va uni ochish tanlangan investorlar o‘rtasida amalga oshirilishi mumkin. Ma’lumotlarni bu tarzda konfidensial tarzda ayriboshlash banklar va ularning qarzdorlari o‘rtasida ham bo‘lishi mumkin. Bu qonunchilik bilan ham tartibga solib boriladi. Masalan, yapon tijorat banklarining korporatsiyalarni kapitalidagi ulushi 25 foizidan oshmasa uni matbuotda e’lon qilishi shart emas.

Korporativ boshqarishning kontinental modelning yuqoridagi modeldan farqli jihatlari quyidagilar:

1) kapitalning yuqori konsentratsiyalashuvi;

2) ichki nazorat kuchli;

3) kompaniya barcha ishtirokchilarining manfaatlarini qondirishga qaratilgan yo‘nalishi egaligi;

4) insayderlik faoliyati salbiy natijalarining neytralligi.

Mazkur modelning asosiy kamchiliklaridan biri banklarning ta’siri yuqoriligi, ya’ni aksionerlar tizimida asosiy ulushni (boshqa subyektlarga nisbatan) banklar egallaydi. Boshqaruvda asosiy paket egalari o‘zlari nazoratni qo‘lga olishadi va mukammal korporativ siyosat amalga oshirilmaydi. Strategik maqsadlarni belgilashda minoritar aksionerlar va turli guruhlar yo‘nalishlari hisobga olinmaydi.

Korporativ boshqarishning Yapon-German modeli yoki Kontinental modeli Yaponiya, G‘arbiy Yevropa (Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Niderlandiya) va Shimoliy Yevropa (Skandinavskiya) mamlakatlariga xos bo‘lgan boshqaruv usuli hisoblanadi. Ushbu model Fransiya (taxminan 20 % kompaniyalarda) va Belgiyada banklarning 105 boshqaruvida foydalaniladi. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari banklari amaliyotida ham korporatuv boshqaruvning kontinental modelidan foylaniladi.

AQSH va Britaniya modelidan farqli ravishda Kontinental modeli aksionerlik jamiyatini boshqarishning 3 bo‘limli model: aksionerlar yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va bank boshqaruvidan iborat.

Korporativ boshqarishning Kontinental modeli amal qiluvchi davlatlarda aksionerlik kapitali taqsimoti yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yirik nemis kompaniyalarida 5 ta yirik aksionerning ushbu kompaniyadagi ulushi 40 foiz aksiyasiga to‘g‘ri keladi. Germaniyada banklarning kapital tarkibida tashqi investorlarning ulushi yuqori (14%) va davlat (5%), ushbu ko‘rsatkichlar Angliyada nisbatan yuqori, Amerikadan esa qariyb 2 barobar ortiqdir.

Korporativ boshqaruv kontinental modelining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, nemis firmalari o‘zaro bir-birlariga aksioner hisoblanadi, ya’ni o‘zaro kapitalda ishtirok etadilar. Bu ularning o‘zaro norasmiy xoldinglar ko‘rinishida faoliyat yuritishini ta’minlaydi va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Qizig‘i shundaki, nemis banklari AQSH banklaridan farq qilib, universal hisoblanadi, ya’ni barcha turdagi bank xizmatlarini va operatsiyalarini amalga oshira oladi. Bunda banklar uchun aksiyalarga egalik qilish va sotib olish uchun chegaralar belgilanmagan (ba’zi ixtisoslashgan banklar bundan mustasno).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toymuxamedov. G.Bekmurodova. “Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Ma’ruza mashg‘uloti uchun. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2016-yil.
2. Z.Abdullayeva Bank ishi. –T.: “Moliya”, 2009.
3. Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. Ю.И. Коробова. –М.: Магистр, 2007.
4. Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов; под ред. О.И. Лаврушина. –М.: КНОРУС, 2007.
5. Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазавой, Л. Кроливеской – СПб: Питер, 2008.

MATHEMATICAL AND SCIENTIFIC ANALYSIS FOR STRATEGIC DECISION-MAKING IN NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Makhmudova Nasibakhon Abdujabborovna
senior teacher Fergana Polytechnic Institute
makhmudovanasiba74@gmail.com

Abstract. Economic stability is essential for sustained growth and development. This work explores scientific and methodological approaches to achieving stability by accelerating economic liberalization, transforming key sectors, and enhancing industrial and agricultural production. The analysis integrates mathematical models and quantitative methods to emphasize the necessity of a rigorous scientific framework for policy formulation and implementation. This work delves into how these approaches can